



TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Yuldasheva
Muxtasarxon Ikromjon
qizi**

*Texnologik ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Texnologiya darslarining asosiy qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. Bunda o'quvchilar turli materiallar va ularning xususiyatlarini, ularga ishlov berish usullarini, asbob-uskuna, stanoklarning turlarini, ularning tuzilishi va ishlatilishini o'rganadilar hamda oddiy buyumlar tayyorlash orqali dastlabki mehnat ko'nikmalarini egallaydilar. Aytish mumkinki, har qanday faoliyatni tashkil etish shu sohada ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash, ijodiy ishlash jarayonini tashkil qilish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Jumladan, texnologiya o'quv fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga hamda ijodiy ishlashga o'rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini ko'ramiz.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish natijalaridan ma'lumki, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga doir turli xil shakl va usullari ochib berilgan. O'rganilgan barcha tadqiqotlarda ijodiy faoliyat orqali shaxsli tarbiyalashga doir kata imkoniyatlar mavjudligi aytib o'tilgan.

Pedagogika va psixologiya fanlariga oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha, umumiy holda faoliyat deganda kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) hamda tashqi (jismoniy) faolligiga aytiladi. Inson faoliyatining mazmuni shu faoliyatni vujudga keltiradigan ehtiyojlarning o'zi bilangina emas, balki faoliyat motivlari bilan ham belgilanadi. Albatta, maqsadga erishish faollik talab qiladi. Bu faollik esa iroda bilan bog'liqligi barchamizga ma'lum. Shuning uchun ham faoliyat voqelikka bo'lgan faol munosabatlarga shunday bog'liqlik, yashab turgan odam va olam o'rtasida real aloqa o'rnatadi. Faoliyat o'yin faoliyati, ta'lim faoliyati hamda mehnat faoliyati kabi turlarga bo'linadi. O'yin faoliyati harakatli va aqliy o'yinlardan tashkil topadi. Ta'lim faoliyati esa sub'ektni o'rganish maqsad qilib olinga o'ziga xos faoliyat hisoblanib, bu faoliyat bilim olish, ko'nikma hamda malakalarni hosil qilish bilan yakunlanadi. Mehnat faoliyati esa ma'lum bir ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi.

Shu o'rinda texnologiya darslarida qo'llaniladigan quyidagi faoliyat turlari haqida ham ma'lumot berib o'tmoqchiman.

Ijodiy faoliyat mehnatning ijodiy yo'nalishi (mehnatni tashkil etish, uning mazmuni, usullarini tadqiq etish) bilan tavsiflanadi. Ijodiy faoliyat yechimi ilgari ma'lum bo'lmagan masalalarni qo'yishni yoki fikrlashni shakllantirishni talab qiladi. Muammoni hal qilishga qaratilgan ijodiy faoliyat muammo yechimlarini toppish, taqqoslash va tanlash – izlanuvchanlik ko'rinishiga ega bo'ladi.

Psixologlarning fikricha bolalarning va kattalarning ijodiy faoliyat jarayoni umumiy psixologik asosga ega bo'lib, u ularning yoshiga bog'liq bo'lmaydi. Ya'ni ijodiy faoliyat jarayoni – izlash, izlanish va muammolarning yechimlarini toppish ishlari bolalarda ham, kattalarda ham psixologik tomondan bir xil kechadi. Biroq bu jiddiy faoliyatning oxirgi natijasi prinspl jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, kattalar bilimi va tajribasi nisbatan ko'p bo'lganligi sababli jamiyatga, fanga noma'lum bo'lgan yangilikni kashf etsalar, bolalar, o'quvchilarning bilimi va tajribalari kam bo'lganligi sababli ancha avvaldan ochilgan yangiliklarni qaytadan “kashf” qilishlari mumkin.

Amerikalik psixolog J. P. Gilfordning fikricha ijodkorlik faqatgina iqtidorli, buyuk shaxslargagina emas, balki, oddiy holdagi har bir insonga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Bu fikrni o'zlarining ilmiy izlanish va tadqiqotlarida ko'plab mashhur tadqiqotchilar ham ta'kidlab o'tganlar.

Kattalarning ijodiy faoliyati ko'p hollarda ob'ektiv va ijtimoiy ko'rinishdagi yangiliklarni kashf etish bilan tugallansa, o'quvchilardagi bunday ijodiy faoliyat natijalari esa ko'pincha sub'ektiv va xususiy ko'rinishdagi yangiliklarni kashf qilish bilan nihoyasiga yetadi. Ayrim hollarda esa o'quvchilarning ijodiy faoliyati ham sub'ektiv yangiliklarni yaratish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga binoan bolalardagi, o'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatini shartli 3 xil darajaga bo'lish mumkin:

1 - daraja – quyi daraja hisoblanib, bunda o'quvchilar tomonidan topiladigan yangiliklar asosan sub'ektiv ko'rinishga ega bo'ladi. Ya'ni bu holatda o'quvchilar avvaldan ma'lum bo'lgan yangiliklarni boshqattadan “kashf” etadilar. Buning natijasida esa bu yangilik faqat shu o'quvchining o'zi uchungina yangilik bo'ladi. Biroq bu jarayon ham osongina kechmaydi. Sababi quyidagi jarayonda ham o'quvchi kuchli psixologik holatlarni – masala mohiyatini tushunish, anglash, tasavvur etish, masala yechimlarini izlash, ba'zi yechimlarni taqqoslash kabi jarayonlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun, garchi, natija avvaldan bor bo'lgan bo'lsa ham, aynan shu natijaga kelishning o'ziyoq o'quvchida kelgusida uni ob'ektiv ijodiy faoliyatga o'tishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2 – daraja – o'rta daraja bo'lib, bunda o'quvchilar tomonidan topilgan yangiliklar ham sub'ektiv, ham ob'ektiv ko'rinishlarda bo'ladi. Ya'ni bu darajaga erishgan o'quvchilarda yangilik yaratish usullarini bir qancha yaxshi egallaganlik, yangilik yaratish bo'yicha bir qancha tajribalar hosil bo'lganlik holatlari kuzatiladi. Bunday darajaga erishgan o'quvchilarga kelgusida yaxshi e'tibor qaratilsa, ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirilsa - ular ba'zi qiyinchiliklarni yengib o'tib, eng yuqori darajaga ko'tarila oladilar.

3 – daraja – yuqori daraja. Bunda o'quvchilarning topgan yangiliklari deyarli ob'ektiv ko'rinishida bo'ladi. Biroq bu darajagacha yetib kelish, unga erishish oson emas. Buning uchun avvalo o'quvchining o'zida intilish, qiziqish bo'lishi

o'qituvchi esa buni o'z vaqtida seza bilishi hamda o'quvchidagi ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish choralarini amalga oshirib borishi kerak.

Ma'lumki, 5-7 – sinflarda texnologiya fani bo'yicha o'quv dasturida o'quvchilarning ish usullarini o'rganishlari va mehnat malakasini hosil qilishlari uchun turli xildagi amaliy mashg'ulotlar o'tkazish hamda buyumlar yasash inobatga olingan. Bu sinflarda, yangi o'smirlik davrida ayni bir xil yoshdagi o'quvchilar o'zlarining aqliy va jismoniy rivojlanish xususiyatlariga qarab turlicha tushinish, fikrlash va ish bajarish qobiliyatlariga ega bo'ladilar. Ayniqsa, amaliy ishlarni bajarishda shularni hisobga olish zarur. Shuning uchun texnologiya darslarida o'quvchilarning amaliy hamda ijodiy ishlarini tashkil qilishda ular tomonidan tayyorlanadigan buyumlarning tuzilishi, ularning qismlarini biriktirish usullari, ularni tayyorlashda ishlatiladigan materiallarining, ish asboblarning hamda ish usullarining turlari va soniga ko'ra quyidagi 5 ta toifaga yoki darajaga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bir detalli eng oddiy buyumlar bo'lib, bularga ko'rsatkich tayoqcha, qistirma, chizg'ich va shu kabi buyumlarni kiritish mumkin.

2. Bir – ikki xil materialdan qilinadigan ko'p detalli oddiy birikmali buyumlar hisoblanadi. Ularga misol qilib, kurakcha, quticha, zambil, pol yuvgich (shvabra), nutromer, kronsirkul kabi buyum va asboblarni keltirish mumkin.

3. Bir yoki bir necha xil materiallardan qilingan ko'p detalli, murakkab birikmali buyumlar hisoblanib, ularga surat romchalari, rom, eshik, darvoza, kursi, sandiq, sandal kabi buyumlar misol bo'la oladi.

4. Oddiy mexanizmli buyumlar. Bularga dastaki – qo'l tiskilari, vintli qotirgichlar, kolovorot kabilarni kiritish mumkin.

5. Harakatlanuvchi buyumlar va radioqurilmalar. Bu toifaga elektr yoki mexanik qurilma yordamida harakatlanadigan, radio orqali boshqariladigan avtomobil, traktor, kema, samolyot, raketa modellari, turli xildagi o'yinchoqlar, robotlar, radio signallarni tarqatuvchi hamda qabul qiluvchi, ovoz va tasvirlarni yozib oluvchi hamda qayta eshittiruvchi, ko'rsatuvchi qurilmalar va shu kabilarni kiritish mumkin.

Bu bilan aynan shu buyum yoki qurilma aynan mana shu toifa yoki darajaga mansub bo'ladi, demoqchi emasman, balki aynan bir xil nomdagi buyum yoki qurilma o'zining tuzilishi va badiiy ishlanishiga qarab murakkabroq ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkinligini aytib o'tmoqchiman. Shuning uchun bu darajalanishni umumiy holda tuzilgan deb qarash ayni muddaodir. Binobarin, o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan buyumlarni bunday oddiy ko'rinishdan murakkabga qarab boruvchi xususiyat asosida darajalarga bo'lib olinishi ularning o'smirlik davridagi aqliy va jismoniy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlarga mos holda yuqoridagi 5 xil yo'nalish bo'yicha amaliy, ijodiy mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Bu kabi ishlar o'quvchilarning zerikmay, toliqmay, o'z imkoniyatlari doirasidan kelib chiqib mustaqil va ijodiy ishlashlariga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS." *Open Access Repository* 9.11 (2022): 114-119.
2. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan, and Parmankulova Orastakhon Sharifjon. "Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.2 (2023): 77-81.
3. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "MAXSUS TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TA'LIMNING INTEGRATSIYALASHUVI." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 4. 2023.
4. Sobirovna, U. M. "O'QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA FANINI O'ZLASHTIRISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH." *Ustozlar uchun* 16.1 (2023): 392-399.
5. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "Technology As a Factor of Educational Education In Special Schools." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.1 (2023): 4-7.
6. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 62-67.
7. Sobirovna, Usmonova Muxlisaxon. "TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 4. 2023.
8. Усмонова, Мухлисахон. "Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi." *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире* 1.4 (2022).
9. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "TEACHING OF TECHNOLOGY IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 48-54.
10. Sobirovna, Usmanova Mukhlisakhan. "PROVIDING INFORMATION ABOUT TEXTILES AND ITS HISTORY IN TECHNOLOGY CLASSES." *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences* 1.2 (2024): 28-32.
11. Xayrullayeva, V. X., and M. S. Usmonova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARGA PEDAGOGIK BILIM BERISH TIZIMINING AHAMIYATI." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).